

6-§. Photoshopda 3x4 o'lchamli rasm yaratish


3x4 o'lcham odatda pasport rasmi, talabalar guvohnomasi, ID karta, hujjat uchun foto kabi maqsadlarda ishlatiladi. Photoshopda bu o'lcham piksel (px) orqali beriladi. Raqamlar dpi (dots per inch – har dyuymdagi nuqtalar soni) ga bog'liq bo'ladi.

1-topshiriq. 3x4 o'lchamli rasm hosil qilish.

1. Kompyuter xotirasida mavjud rasm loyiha oynasiga yuklanadi. Buning uchun **Файл** menyusining **Открыть** (Ctrl+O) bandi bosiladi va xotiradagi rasm tanlanib, muloqot oynasidagi **Открыть** tugmasi bosiladi.

2. 3x4 o'lchamli oltita rasmni bitta faylda hosil qilish uchun, har bir rasmning atrofida oq chiziq hosil qilish kerak. Chunki rasmlar bir-biridan ajralib turishi lozim. Buning uchun yangi **Слой 1** nomli qatlam ochiladi (Ctrl+Shift+N→OK) va shu qatlam tanlanib, rasm to'liq bilgilanadi (Ctrl+A).

3. Menyular satridan **Редактирование→Выполнить обводку** ketma-ketligi tanlanadi. Natijada **Выполнить обвод** oynasi hosil bo'ladi:



6.17-rasm. Выполнить обвод oynasi.

Ushbu oynadan kerakli parametrlar: **Ширина=5 пиксел**, **Цвет=оq (FFFFFF)**, **Расположение=Внутри** bandlari sozlanadi va **ОК** tugmasi bosiladi. Natijada rasm va uning chegarasi orasida 5 px ga teng bo'lgan oq chiziq (ramka) hosil bo'ladi:



6.18-rasm. Выполнить обвод oynasining standart holati.




6.19-rasm. Выполнить обвод oynasining parametrlari o'zgartirilgan holati.

4. Tayyor bo'lgan rasm **3x4** nom va **.jpg** kengaytmada saqlanadi (**3x4.jpg**). Buning uchun **Файл→Сохранить как** ketma-ketligi bajarilgandan so'ng, **Тип файлов** ro'yxatidan **.jpg** bandi tanlanadi.

5. Adobe Photoshop ishchi oynasidagi barcha fayllar yopiladi (Ctrl+Alt+W). Kompyuter xotirasidan **3x4.jpg** nomli rasm loyiha oynasiga yuklanadi. Buning uchun **Файл** menyusining **Открыть** (Ctrl+O) bandi bosiladi va xotiradagi rasm tanlanib, muloqot oynasidagi **Открыть** tugmasi bosiladi.

6. Loyiha fayli yuklangandan so'ng, **Окно** menyusidan **Слои** bo'limi (F7) tanlanilib, qatlamning nomidan o'ngda hosil bolgan qulf belgisi ustiga sichqoncha chap tugmasi ikki marta bosiladi. Hosil bo'lgan muloqot oynasidan **ОК** tugmasi bosiladi. Natijada rasmni tahrirlash imkoniyati yaratiladi.


7. Keyingi qadamda, menyular satridan **Изображение→Размер холста** (Alt+Ctrl+C) ketma-ketligi tanlanadi. Natijada **Размер холста** oynasi hosil bo'ladi:




6.20-rasm. Размер холста oynasi.

Ushbu oynadan kerakli parametrlar sozlanadi, ya'ni, gorizontal yo'nalishda uchta, vertikal yo'nalishda ikkita rasm joylashtirish uchun, foiz o'lchov birligida

Ширина=300 процент, Высота=200 процент o'lchamlari tanlanadi. **Расположение** parametrini rasmlar yuqori chap burchakdan pastki o'ng burchakkacha proporsiyalanishi uchun, yuqori chap burchakdagi kvadrat tanlanadi va **OK** tugmasi bosiladi. Natijada 3x4 o'lchamli rasmning bir donasi tayyor bo'ladi:



6.21-rasm. Размер холста oynasidagi parametrlarni sozlash.




6.22-rasm. Размер холста oynasidagi parametrlarni sozlash natijasi.

5. Bundan so'ng, qatlam dublikat qilinadi. Buning uchun qatlam ustiga sichqoncha o'ng tugmasi bosiladi va **Создать дубликат слоя** (Ctrl+J) bandi tanlanadi. Natijada **Слой 0** nomli qatlamning dublikati **Слой 0 копия** nomida hosil bo'ladi.

6. Yuqoridagi amallar bajarilganidan so'ng, **Слой 0 копия** nomli qatlam tanlanadi va **Shift** tugmasini bosgan holda **Перемещение** (V tugmasi) uskunasi yordamida rasm belgilanib, chap tomonga suriladi. Natijada 3x4 o'lchamli rasm bittaga ko'payadi.


7. Shundan so'ng, **Слой 0 копия** nomli qatlam dublikat qilinadi (Ctrl+J). Dublikat qilingan qatlam **Слой 0 копия 2** deb nomlanadi va uni ham **Shift** tugmasini bosgan holda **Перемещение** (V tugmasi) uskunasi yordamida rasm belgilanib, chap tomonga suriladi. Natijada 3x4 o'lchamli rasm uchinchisi hosil bo'ladi:



6.23-rasm. Rasmlar sonini ko'paytirilgan holati.

8. **Ctrl** tugmasini bosgan holda yaratilgan **Слой 0**, **Слой 0 копия**, **Слой 0 копия 2** qatlamlar tanlanib, barchasining dublikati hosil qilinadi (**Ctrl+J**). Dublikat qilingan qatlamlar **Слой 0 копия 3**, **Слой 0 копия 4**, **Слой 0 копия 5** nomlariga ega bo'ladi.

9. Bundan so'ng, **Слой 0 копия 3** qatlami tanlanadi va **Shift** tugmasini bosgan holda **Перемещение** (V tugmasi) uskunasi yordamida birinchi 3x4 rasm belgilanib, quyi tomonga suriladi. Bu ish **Слой 0 копия 4** va **Слой 0 копия 5** qatlamlari uchun ham bajariladi. Natijada 3x4 o'lchamli olti dona rasm bitta faylda mujassamlanadi:



6.24-rasm. Bir xil rasmning bir faylda to'liq joylashtirilgan holati.

10. **Слой** panelidan barcha qatlamlarni tanlab (**Ctrl** tugmasi va sichqoncha chap tugmasi birgalikda bosiladi), sichqoncha o'ng tugmasini bosgan holda **Объединить слои** (**Ctrl+E**) bandini tanlanadi. Shunda barcha qatlamlar yagona qatlamda mujassamlashadi.

7. Bundan so'ng, **Файл→Сохранить** (**Ctrl+S**) ketma-ketligi tanlanib, tayyor rasm **3x4_6ta.jpg** nomi bilan saqlanadi (rasmni nomlash va kerakli formatni tanlash ixtiyoriy).

Savollar va mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. O'zingizga tegishli 3x4 sm o'lchamdagi hujjat rasmini tayyorlang.

a) Yangi hujjat yarating:

Файл → Создать (File → New) menyusi orqali yangi hujjat oching.

Sozlamalar:

- **Ширина (Width):** 3 см
- **Высота (Height):** 4 см
- **Разрешение (Resolution):** 300 пикс/дюйм
- **Содержимое фона (Background Contents):** Белый (White)

b) Rasm joylashtiring:

- Файл → Поместить встроенные объекты (File → Place Embedded)

orqali suratni oching.

- Rasmni kerakli o'lchamga keltirib, markazga joylashtiring.

c) Fonni tozalang yoki rang bering:

Fonni ajratish uchun:

- Быстрое выделение (Quick Selection Tool) yoki
- Выделение → Предмет → Удалить фон (Select → Subject →

Remove Background)

- Yangi qatlamga (слой) mos rangdagi fon bering (masalan: oq, moviy).

d) Matn yozing (ixtiyoriy):

- Горизонтальный текст (Text Tool) vositasidan foydalanib, rasm tagiga "3x4 hujjat rasmi" deb yozing.

e) Rasmni saqlang:

- Файл → Сохранить как (File → Save As)
- Format: **JPEG** yoki **PNG**
- Nomi: ism_familiya_3x4.jpg

2. Rasmni boshqa o'lchamlarda (4x6 sm, 5x5 sm) ham tayyorlab ko'ring va farqini tahlil qiling.